



TENGLAMALAR

Muxtorova Dilorom

Andijon viloyati Asaka tumani

23-maktabning Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Taqriz.

O'qituvchilarning matematika fani asoslarini o'qitishda yo'naltirilgan mashg'ulotlar jarayonini noan'anaviy shakllarda tashkil etish, ta'lif jarayonini mukammal andoza asosida loyihalashga erishish, mazkur loyihalardan oqilona foydalana olish ko'nikmalariga ega bo'lishi ta'lif oluvchilar tomonidan nazariy bilimlarning puxta, chuqur o'zlashtirilishi, ularda amaliy ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishining kafolati bo'la oladi.

Zamonaviy ta'lifni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lif jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Ushbu metodik tavsiyada hozirgi kunda dolzarb bo'lgan boshlang'ich sinflarda tenglamalarni yechishni o'rgatish bilan bog'liq muammolar, dars jarayonidagi bolalarga mavzuni yetkazib berish qiyin bo'lgan holatlarga yechim topish yo'llari haqida fikr yuritilgan. Yangi milliy o'quv dasturi bo'yicha ona tili va o'qish savodxonligi, matematika va tabiiy fanlar bevosa boshlang'ich sinf o'qituvchilari tomonidan o'qtiladi. Bu fanlar ichida boshlang'ich sinf o'qituvchilarning fikriga ko'ra matematika fanini o'zining murakkabligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa ma'lumki boshlang'ich sinf matematika darslarida "Murakkab tenglamalarni yechish metodikasi" mavzusi o'quvchilar tomonidan qiyinroq o'zlashtiriladi. Natijada o'quvchilar bir xil muammoga duch keladi. Ya'ni muammo shundan iboratki, o'quvchilarga bitta tenglamaning yechimini tushuntirib berib, shunga o'xshash tenglama berilsa yecha oladilar, ammo u tenglamadan farq qiluvchi tenglama berilsa yecha olmaydilar. Ushbu muammoni yechish maqsadida maqolada

metodik yondoshuvlar ko'rsatib o'tilgan Mana shu muammo yechimi bo'yicha maqolalar, dissertatsiyalar, ilmiy ishlar natijalarini tahlil qilgan holda, muayyan ilg'or pedagogik tajriba vujudga keladi.

Quyida muayyan ilg'or pedagogik tajribani amalda qo'llashni sizlarga tavsiya qilamiz. Tajribaning maqsadi, o'quvchilarga murakkab tenglamalar yechishning muammosiz variantini tushuntirishdan iborat.

1. Muammoning kelib chiqish sababini aniqlash va uni bartaraf etish




2. Muammoni bartaraf etish uchun tavsiya qilinadigan tushunchalar Tenglama so'zining o'zagi bu teng so'zidan iborat bo'lib boshlang'ich sinf matematika fanida bu so'zdan foydalanib tengsizlik tushunchalari kelib chiqiladi. Tengsizlik tushunchalarin biz ko'proq ifodalarni taqqoslashda ishlatalamiz. Ifoda deganda ko'proq misollar tuhuniladi. Shu nuqtai nazardan tenglamalar mavzusini o'rganishni quyidagi rejalar asosida olib borish maqsadga muofiq boladi.

Tenglamalarni yechishga o'rgatish uchun ishni nimadan boshlash kerak?

1. Arifmetik amallar
2. Ifoda
3. Tengsizlik
4. Tenglik
5. Tenglamala


Arifmetik amallar hadlari Qo'shish amalining hadlari $3 + 2 = 5$ 3 va 2 ni yig'indisi 5 ga teng 3-qo'shiluvchi 2-qo'shiluvchi 5- yig'indi Arifmetik amallar hadlari Ko'pchilik Ustozlar darslikda berilgani kabi, arifmetik amallar hadlari 3 ta deb tushuntirib kelmoqda. Agar biz shu tushunchaga quyidagicha yondashsak maqsadga muofiq bo'ladi: Qo'shish amalining hadlari



Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har bir arifmetik amalda 2 ta had va 1 ta natija borligiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday yondashish o'qituvchilarni o'zlariga attestatsiyadagi quyidagi mazmunda keluvchi savolga "Boshlang'ich sinflarda sodda tenglamalarning yechish usullari nechta?" savolga aniq va to'g'ri javobni tushungan holda berishga olib keladi.



Noma'lum son qatnashgan tenglik - tenglama deyiladi



Rasmdan ko'rilib turubdiki, tenglamalar 2 xil: Sodda va murakkab bo'ladi.

Ma'lumki tengamalar 2-sinfdan boshlab o'qitiladi. Sababi 2 -sinfga kelib o'quvchilar 4 ta arifmetik amallar bilan tanishib ulgurishadi. barcha arifmetik amallarni o'rganib bo'lgandan so'ng yuqorida ta'kidlaganimizdek har bitta arifmetik amalda 2 ta had va 1 ta natija borligi nuqtai nazardan foydalaniib, biz sodda tenglamalarning yechilish usullarini quyidagi tasvirlashimiz mumkin.

- | | | |
|------|------------------------------|--------------------------|
| I. | 1) $x+b=c \Rightarrow x=c-b$ | Arifmetik amal |
| | 2) $a+x=c \Rightarrow x=c-a$ | $a+b=c$ |
| II. | 1) $x-b=c \Rightarrow x=c+b$ | a-birinchi qo'sh-i (had) |
| | 2) $a-x=c \Rightarrow x=a-c$ | b-ikkinchi qo'sh-i(had) |
| III. | 1) $x*b=c \Rightarrow x=c:b$ | c-yig'indi(natija) |
| | 2) $a*x=c \Rightarrow x=c:a$ | |
| IV. | 1) $x:b=c \Rightarrow x=c*b$ | |
| | 2) $a:x=c \Rightarrow x=a:c$ | |



Bu ko'rgazmadan sodda tenglamalarni yechish usullari 8 ta ekanligi ko'rish qiyin emas. Bevosita murakkab tenglamaning yechish jarayoni bilan tanishtirishga o'tamiz.

Tenglamani yechish usuli:

$$(2 \cdot X - 4) - 4 = 4$$

$$(2 \cdot X - 4) = 4 + 4$$

$$2 \cdot X - 4 = 8$$

$$2 \cdot X = 8 + 4$$

$$2 \cdot X = 12$$

$$X = 12 : 2$$

$$X = 6$$

Bu tenglama o'quvchilarga tushunarli bo'lishi uchun o'qituvchilar quyidagi savollarga javob topishi lozim bo'ladi.

$$(2 \cdot X - 4) - 4 = 4$$

Nima uchun qavsni ichini noma'lum son deb oldingiz?

$$(2 \cdot X - 4) = 4 + 4$$

Nega 4sonini bu tomonagi 4soniga qoshdingiz?

$$2 \cdot X - 4 = 8$$

Nega qavslarni tashladingiz?

$$2 \cdot X = 8 + 4$$

Nega 8ga 4ni qo'shdingiz?

$2 \cdot X = 12$ Bu qanday teglama?

Shunday tenglamalardan nechtasidan foydalandiz va nima uchun?

$$X = 12 : 2$$

X=6 Bu savollarga javob berish uchun matematika o'qitishning asosiy yo'nalishlaridan foydalangan holda

Matematika o'qitish jarayonining eng asosiy yo'nalishlari quyidagi 4 qismdan iborat.

1. Matematika tushunchalar to'plamini bilish
2. Matematik mulohoza yurita olish.
3. Matematik masala va muammollarni yechish.
4. Matematik tilni egallash.

Quyidagicha yechish usuli tavsiya etiladi.



Tenglama ustida ishlash texnologiyasi

- $(2 \cdot X - 4) - 4 = 4$
- \cancel{X}
- $x - 4 = 4$ I-sodda tenglama 1) $x - b = c \Rightarrow x = c + b$
- $(2 \cdot X - 4) = 4 + 4$
- \cancel{X}
- $x = 8$ qavsdan keyin bajariladigan amal qolmagani uchun qavs tashlanadi
- $2x - 4 = 8$
- $x - 4 = 4$ II-sodda tenglama 1) $x - b = c \Rightarrow x = c + b$
- $2 \cdot X - 4 = 8$
- $2 \cdot X = 8 + 4$
- $2 \cdot X = 12$ III-sodda tenglama 1) $a \cdot x = c \Rightarrow x = c : a$
- $X = 12 : 2$
- $X = 6$

Tenglamalarni bunday usulda yechilishidan o'qituvchilar murakkab tenglamalarni yechishga o'rgatishda ishni nimadan boshlashni o'rganib olishadi hamda tenglamalarning yechishdan maqsad nima ekanligini o'zlariga aniq belgilab olishadi.

«FIKRIY HUJUM» METODI

Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi.

“Fikriy hujum” metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulotning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtaga tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qilash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi erkin ishtirokini ta'minlashdir. Ta'lrim jarayonida ushbu metoddan foydalanish o'qituvchining pedagogik mahorati va tafakkur ko'laming kengligiga bog'liq bo'ladi.

“Fikriy hujum” metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir saotga qadar tashkil etilishi mumkin.

“QORA QUTI” METODI

Ta'lrim jarayonida mazkur metodni qo'llashdan maqsad o'quvchilar tomonidan mavzuni puxta o'zlashtirishga erishish bilan birga ularni faollikka undash, ularda hamkorlikda ishlash, ma'lum vaziyatlarni boshqarish hamda mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Metoddan foydalanishda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'quvchilar juftlikka biriktiriladi;
- juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi asosiy tushunchalar(tayanch so'zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va . . .)ni kartochkalarga qayd etish vazifasi



yuklanadi;

- o'qituvchi o'quvchilar bilan hamkorlikda guruhlar tomonidan topshiriqning bajarilishinitekshiradilar;
- topshiriqnito'g'ri bajargan guruhning bir a'zosi o'qituvchi rolini bajaradi vatopshiriqning yechimini yozuv taxtasiga yozadi;
- sind o'quvchilari yozuv taxtasida qayd etilgan fikrni sharhlaydilar (tayanch so'zlar, sanalar, belgilar, raqamlar va . . . qanday ma'noni anglatishini aytadilar);
- to'g'ri javob bergan o'quvchi o'qituvchi rolini bajarib, juftliklarga mavzu mohiyatini yorituvchi sxema, jadval yoki tasvir yaratishni topshiradi va o'qituvchi yordamida topshiriqning bajarilishini tekshiradi.

"BESHINCHISI (OLTINCHISI, YETTINCHISI, ...) ORTIQCHA METODI

O'quvchilarning mantiqiy tafakkur yuritish ko'nikmalariga ega bo'lishlarida ushbu metod alohida ahamiyatga ega. Uni qo'llash quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berishga xizmat qiluvchi tushunchalar tiziminishakllantirish;
- hosil bo'lgan tizimdan mavzuga taalluqli bo'lgan 4 ta (5 ta, 6 ta, ...) va taalluqli bo'lman bitta tushunchaning o'rinni olishiga erishish;
- o'quvchilarga mavzuga taalluqli bo'lman tushunchani aniqlash va uni tizimdan chiqarish vazifasini topshirish;
- o'quvchilarni o'z harakatlari mohiyatini sharhlashga undash (mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilardan tizimda saqlanib qolgan tushunchalarga ham izoh berib o'tishlari hamda ular o'rtasidagi mantiqiy bog'likni asoslashlarini talab etish lozim).

Mavzu mohiyatini yorituvchi tushunchalar o'rtasidasigi mantiqiy bog'likni ko'rsata va asoslash olish o'quvchilarda mustaqil fikrlash, shaxsiy yondashuvlarini asoslay, shuningdek, tengdoshlarining fikrlari bilan shaxsiy mulohazalarini o'zaro taqqoslash ko'nikmalarini ham shakllantiradi.

"3/3" ("4/4", "5/5", ...) metodi

Mazkur metod ham yuqorida qayd etilgan metodlarning muqobili hisoblanib, o'quvchilardan o'rganilayotgan mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan tahliliy mulohaza yuritish, shuningdek, eng muhim tayanch tushunchalarni ifodalay olishni talab etadi. Unga ko'ra o'qituvchi mavzu (yoki bo'lim, bob) yuzasidan 3 ta (4 ta, 5 ta va ...) to'g'ri va unga teng nisbatda (3 ta, 4 ta, 5 ta va ...) bo'lgan va noo'rin qo'llanilgan tushunchalar (so'zlar, belgilar, tasvirlar va

...)dan iborat tizimni shakllantiradi. O'quvchilar ushbu tizimdan mavzu (yoki bo'lim, bob)ga taalluqli bo'lman tushunchalarni ajratadilar va harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar tashkil etiladi:

- o'qituvchi o'zaro teng nisbatda mavzu (yoki bo'lim, bob)ga oid va oid



bo'limgan asosiy tushunchalar tizimi yaratadi;

- o'quvchilar mavzu (yoki bo'lim, bob)ga oid va oid bo'limgan asosiy tushunchalarni aniqlaydilar va daxldor bo'limgan asosiy tushunchalarni tizimdan chiqaradilar;
- o'quvchilar o'z harakatlarining mohiyatini izohlaydilar.

Metoddan individual, guruhli va ommaviy shaklda o'quvchilar tomonidan mavzuning puxta o'zlashtirilishini ta'minlash hamda ularning bilimlarini aniqlash maqsadida foydalanish mumkin.

"QIZIL VA YASHIL RANGLI KARTOCHKALAR BILANISHLASH" METODI

O'quvchilar bilan ommaviy va guruhi shaklda ishlashda ushbu metoddan foydalanish ham ijobiy natijalarni kafolatlaydi. Metodni qo'llashda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- o'qituvchi tomonidan o'rganilayotgan mavzuning mohiyatini mantiqiy ketma-ketlikda yoritishga xizmat qiluvchi tushunchalarni ifoda etgan maxsus kartochkalar majmui tayyorlanadi (har bir kartochkaning orqa tomoniga mavzu mohiyatini yorituvchi "yadro" tushunchanining bittadan harfi joylashtiriladi va maxsus qoplama bilan berkitiladi);
- har guruhgaga maxsus kartochkalarning alohida majmisi topshiriladi va kartochkalarni ulardagi tushunchalarga asosan mantiqiy ketma-ketlikda joylashtirish vazifasi yuklanadi;
- guruhlar tomonidan topshiriq bajarilib bo'lingach, kartochkalarning orqa tomoni o'giriladi va maxsus qoplama ochilib, topshiriqning qay darajada to'g'ri bajarilganligi aniqlanadi.

Agar topshiriq guruhlar tomonidan to'g'ri bajarilgan bo'lsa, yakuniy jarayonda kartochkalar orqa tomonga o'giriganda mavzuning mohiyotini yorituvchi "yadro" tushuncha hosil bo'ladi.

Metoddan foydalanishning afzalligi shundaki, bu jarayonda o'quvchilarda mavzuni muayyan qismlarga bo'lib o'rganish va qismlar o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik hamda aloqadorlikni analiz va sintez asosida aniqlash ko'nikmalari hosil qilinadi.

"INSERT" strategiyasi

Strategiya o'zlashtirishi ko'zda tutilgan yangi mavzu bo'yicha o'quvchilarning muayyan tushunchalarga egaliklarini aniqlash va ularda matnga nisbatan tahliliy yondashish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Strategiyani qo'llash jarayonida quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

- kichik guruhlar shakllantirilib, ular nomlanadi;
- har bir guruhlar o'zlashtirishi rejalahtirilayotgan mavzuga oid 2 ta fikr bildirish so'raladi;
- o'quvchilar navbatma-navbat mulohazalarni bayon etadildi;
- bayon etilgan fikrlar yozuv taxtasiga yozib boriladi;



-so'ngra o'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni guruhlarga tarqatadi;

-guruhsiz matn bilan tanishib chiqib, matn va o'zlari bildirgan fikrlarning bir-biriga qay darajada muvofiq kelganligini aniqlaydilar (o'xshashlik va farqlar maxsus belgilar yordamida qayd etiladi);

- guruhsiz a'zolari shaxsiy qarashlarini ifoda etadilar va maxsus belgilar soni umumlashtiriladi;

- guruhsiz a'zolari orasidan liderlar belgilanadi;

- liderlar sinf jamoasini guruhsiz natijalari bilan tanishtiradilar;

-guruhlarning yondashuvlari umumlashtirilib, yakuniy xulosa chiqariladi.

Strategiyani qo'llashda o'quvchilar quyidagi sxemalar bo'yicha faoliyatini tashkil etadilar:

1. Guruhsiz matnidan bildirilgan fikrlar bilan matn qiyosiy taqqoslanadi:

Maxsus belgilar	Maxsus belgilarning ma'nosi
Z	Matnda guruhsiz matnidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topgan bo'lsa
S	Matnda guruhsiz matnidan bildirilgan fikrlar o'z aksini topmagan bo'lsa
?	Matn bilan tanishish jarayonida savollar tug'ilsa (tushunmovchiliklar yuzaga kelsa)

2. Liderlarning hisobotidan so'ng guruhlarning natijalarini o'rghanish chog'ida:

Maxsus belgilarning tartib nomeri	Guruhsiz nomlari			
	Ulug'bek	Beruniy	Ibn-Sino	Ali-Qushchi
1				
2				
3				

Strategiyani o'quvchilar mantiqiy fikrlash, shaxsiy xatolar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

"Zinama-zina" metodi

"Zinama-zina" texnologiyasidan foydalanish darsning yanada qiziqarli va tushunarli bo'lishiga xizmat qiladi. Mazkur usuldan ma'ruza, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka yoki kichik guruhsiz matnidan holda foydalanish mumkin. Bu o'qituvchining qo'ygan vazifasiga qarab belgilanadi.



Ahamiyatli jihat, sinfdagi har bir o'quvchining bilimini individual baholashda "Zinama-zina" usuli qo'l keladi. Qolaversa, vaqt ni tejashta yordam beradi. Quyida ikki o'quvchini bir vaqtida baholashga misol keltirilgan.

1. Matematika fanining biror bo'limida o'tilgan mavzularga doir savollar tanlanadi.
2. Doskaga ikki tomondan bir xil chiqib boriladigan pog'onasimon chizma chiziladi, har birpog'onaga savollar yoziladi.
3. Har ikki tomondagi pog'onalar soni teng bo'lishi kerak.
4. Ikki o'quvchi doskaga chiqariladi va topshiriqni bir vaqtida bajarishga kirishadi.
5. Har ikki o'quvchiga berilgan topshiriqlar o'tilgan mavzu yuzasidan bir-biriga yaqinhamda o'xshash bo'lishi kerak.
6. Topshiriqni birinchi va to'g'ri bajargan o'quvchi nisbatan yuqoriroq baholanadi.
7. Baholash tartibi pog'onalar soniga qarab quyida keltirilgan mezon asosida amalgaoshiriladi.

Pog'onalar 9 ta bo'lsa: 8-9 ta to'g'ri javobga "a'lo", 6-7 ta to'g'ri javobga "yaxshi", 5 tato'g'ri javobga "qoniqarli" baho qo'yiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Matematika darsligi (1-sinf). Turon iqbol. 2021yil
2. Jumayev E. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent 2019 yil
3. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Barcha bolaga birdek sifatli ta'limni ta'minlash davr talabi. Inklyuziv ta'lim, 1(1), 243-246.
4. Rasulova, Sharifa Gaynullayeva, and Feruza Yahyaevna Obidova. "ISSUES OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT." Theoretical & Applied Science 9 (2019): 426-429.
5. Obidova, F., and Z. Umarova. "FOREIGN EXPERIENCE OF SMALL BUSINESS DEVELOPMENT." Экономика и социум 5-1 (2021): 376-379.
6. Obidova, F. Ya. "GREEN INNOVATION IN BUSINESS MARKET." Экономика и социум 10 (2020): 191-194.